

## **OLIIY TA'LIM TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING METODIKASI**

**SHOMURODOV OYBEK**

Bux DU. Tasviriy va amaliy san'at  
kafedrası dotsenti

### **ANNOTATSIYA**

Respublikamizda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga mos ravishda talaba shaxsini kompetensiyaviy imkoniyatlarini mustaqil ta'lim orqali yanada takomillashtirish, kompetentli kadrlarning innovatsion faoliyatini dasturiy maxsulotlar, mediatalim, interaktiv ta'lim texnologiyalarida amalga oshirish zarurati kuchaymoqda. talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini tashkil qilishda "oddiydan murakkabga" tamoyiliga amal qilinmayapti. Shu bilan birga, mustaqil ish mavzusi hamda usulini tanlashda talabaning qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinmayapti.

## **МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Шомуродов Ойбек**

Бух ГУ. Доцент кафедры изобразительного и прикладного искусства

### **АННОТАЦИЯ**

В нашей республике в соответствии с интеграцией науки, образования и производства возрастает необходимость дальнейшего совершенствования компетентностных возможностей личности студента посредством самостоятельного обучения, реализации инновационной деятельности компетентных кадров в программных продуктах, медиаисследовании, интерактивных образовательных технологиях. при организации самостоятельной внеаудиторной работы учащихся принцип "от простого к сложному" не соблюдается. При этом при выборе темы и метода самостоятельной работы не учитываются способности и интересы студента.

## **METHODOLOGY FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM**

**Shamuradov Aybek**

Bukh SU. Associate professor  
of the Department of fine and Applied Arts.

## ABSTRACT

In our Republic, the need to further improve the competency of the student's personality through independent education in accordance with the integration of Science, Education and production, to implement the innovative activities of competency personnel in software products, mediationalism, interactive educational technologies is growing. When organizing independent work of students beyond the audience, the principle of "from simple to complex" is not followed. At the same time, when choosing the topic and method of independent work, the abilities and interests of the student are not taken into account.

Ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyat ravnaqi va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning intellektual salohiyatini oshirish davlat ta'limi standarti, malaka talablarida qo'yilgan talablarga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. O'qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining joriy qilinishi ta'limda istiqbolli vazifalar yechimini ta'minlashga nisbatan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Insonning psixologik va pedagogik imkoniyatlari ko'lamidan oqilona foydalanish, shu asosda ma'lum ijtimoiy istiqbollarni belgilash, aynan har bir shaxsning o'zi jamiyat va xalqning bir qismi sifatida o'zini-o'zi anglashi, o'zini-o'zi rivojlantirishi va kamol toptirishi muqarrardir. Bu jarayon esa, tabiiyki uzluksiz ravishda Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy turmushdagi turli sohalar bo'yicha iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsni shakllantirish muammosi va uni pedagogik – psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirish shu sohaga dahldor barcha yo'nalishlarga alohida ma'suliyat yuklaydi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida har bir pedagog talabalarning mustaqil fikrlashlari uchun sharoit yaratishi lozim, aks holda talaba ongi tayyor shablonlar, stereotiplarga shu qadar o'rganadiki, ular oxir oqibat har qanday noto'g'ri yoki yot g'oyalarga ergashib ketaveradigan bo'lib qoladi. Ya'ni, darsni tashkil etishning noan'anaviy usullariga keng yo'l ochish, darslarda talabalarining interaktiv muloqotini tashkil etish, ular miyasining yaxshiroq ishlashi, qiziqishi va mustaqil fikrlashiga yordam beradi.

Dunyoning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar asosida talabalarni mustaqil ta'lim olishga o'rgatish, mustaqil ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish zarurligi, mustaqil ta'limning amaldagi mexanizmlaridagi bo'shliqlar, tizimdagi nomuvofiqlik kabi bir qancha muammolar bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu o'z navbatida talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyati xususiatlari, uning mohiyati, tashkil qilish tamoyillari, mazmuni va metodlari bo'yicha mavjud yondashuvlarni yanada chuqur tadqiq qilishni taqozo qiladi. Bunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali mustaqil ta'limni tashkil etish,

boshqarish o'qitish samaradorligini oshirish hamda bo'lajak kadrlarni iste'molchilar talabiga muvofiq maqsadli tayyorlash pedagogik jarayonning barcha subektlari kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini belgilamoqda.

Respublikamizda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga mos ravishda talaba shaxsini kompetensiyaviy imkoniyatlarini mustaqil ta'lim orqali yanada takomillashtirish, kompetentli kadrlarning innovatsion faoliyatini dasturiy maxsulotlar, mediatalim, interaktiv ta'lim texnologiyalarida amalga oshirish zarurati kuchaymoqda. Bu esa, oliy ta'lim muassalarida tasviriy san'at ta'lim tizimidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, fan dasturlarini qayta ko'rib chiqishni, o'quv dasturlari mazmuniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini singdirish, fanlararo aloqadorlikning nazariy-metodologik asoslarni rivojlantirish hamda ta'lim oluvchilar amaliy va mustaqil faoliyatlarini takomillashtirishda uning tatbig'ini oshirish muammosini har tomonlama chuqur tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Muammoga doir ko'plab ilmiy va pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, talabalarining mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni jahon standartlariga javob beradigan mutaxassis kadr qilib tayyorlashda mustaqil ta'limni takomillashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish hamda baholashga ahamiyat berilmagan, mehanizmlari ishlab chiqilmagan.

- Talabalar mustaqil ishini nazorat qilishga ijodiy asosda yondashilmayapti. O'quv rejalarida auditoriya soatlariga nisbatan auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limga ko'proq vaqt ajratilayotganiga qaramasdan, ko'pincha bu vaqt talabalar tomonidan o'quv faoliyatidan tashqaridagi "bo'sh vaqt" sifatida qabul qilinmoqda. Bunda auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limning soatlari haftalik kesimda rejalashtirilmayotgani va nazorat qilmasligi, rag'batlantirish choralarining yetarli emasligi asosiy o'rin tutyapti. So'rovda ishtirok etgan talabalarining aksariyati mustaqil ishlar bahosining umumiy bahoga qo'shilmayotgani, ba'zi o'qituvchilargina umumiy ballga qo'shayotganini ta'kidlagani ham mustaqil ishlarni rag'batlantirish sust darajada ekanini ko'rsatadi;

- auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni bajarishda talabalar tomonidan plagiat va o'zlashtirish holatlari keng tarqalgan hodisa bo'lib qolmoqda. Talabalar akademik halollik qoidasini buzishini tan olmoqda. Mazkur holat OTMLlarda professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga akademik halollik borasida yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmayotgani hamda mustaqil ishlarni antiplagiat dasturlari orqali tekshirish amaliyotining mavjud emasligi bilan bog'liq. Mustaqil ishlarni hanuzgacha qo'lyozma shaklda qabul qilish amaliyotining saqlanib qolganligi ham mazkur muammoni yanada chuqurlashtirmoqda;

- talabalarining auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini tashkil qilishda “oddiydan murakkabga” tamoyiliga amal qilinmayapti. Shu bilan birga, mustaqil ish mavzusi hamda usulini tanlashda talabaning qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinmayapti;

- professor-o‘qituvchilarning yarmidan ko‘pi mustaqil ishlarni o‘quv kursining faqat nazariy masalalari bilan cheklangan holda tashkil etmoqda. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, talabada real amaliy muammolar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish qoniqarli holatda emas;

- professor-o‘qituvchilarning yangi ilmiy manbalar bilan ishlash faolligi past darajada qolmoqda. Bu ham, o‘z navbatida, talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda ilmiy va innovatsion bo‘shliqlarni yuzaga keltiradi;

- Mustaqil ta‘limni tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish hamda baholashda deyarli innovatsion, interaktiv o‘yinli dasturiy ta‘minotlardan, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilmasligi ma‘lum bo‘ldi.

Rivojangan xorijiy OTMlarda Talaba bir hafta davomida o‘rtacha 10-15 soat auditoriya darslarida, 25-30 soat auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar bilan band bo‘ladi. Professor-o‘qituvchilar faoliyatini “o‘qitish”dan ko‘ra ko‘proq “o‘rgatish”ga tomon yo‘naltiradi, bu esa talabalarining kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirishga bo‘lgan mas‘uliyatining ortishiga turtki beradi. Talabalarining mustaqil ijodiy ishlari antiplagiat orqali originalligi tekshirilib undan so‘ng baholanadi. Mustaqil ta‘lim topshiriqlari xususiyatiga ko‘ra moslashuvchan bo‘lib, ayrimlari onlayn tashkil etiladi hamda boshqariladi va bu yuqori samara beradi. Mustaqil ta‘limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish va baholashda o‘yinli platformalar, raqamli va mediata‘lim vositalaridan faol foydalanadi.

Mustaqil ta‘lim oliy ta‘lim muassasasida o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, u quyidagi sohalarda bajariladi:

1. Ma‘ruza mavzusi va materiali bo‘yicha mustaqil ishlar: ma‘ruzada bayon qilingan asosiy tushunchalar, muhim masalalarni idrok etish va anglab olish uchun ma‘ruzadan keyin o‘z yozuvlari (konspekti)ni tartibga keltirish, tavsiya etilgan o‘quv adabiyotlari, birinchi manbalarni o‘rganish bilan o‘z yozuvlariga tuzatishlar kiritish va to‘ldirish, o‘qilgan manbalardan qo‘shimcha matnlar olish.

2. Amaliy mashg‘ulotlarga, seminar va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik sohasida mustaqil ishlash, axborotlarni tartibga keltirish, savollar tuzish, javoblar hozirlash, o‘quv mashg‘uloti loyihalarini tuzish, savol - javoblarga, muhokamada qatnashishga, amaliy ishlarni bajarishga tayyorlanish.

3. Referatlar, ma‘ruzalar, kurs ishlarini yozish bo‘yicha o‘quv - biluv topshiriqlarini bajarish bo‘yicha mustaqil ishlar.

4. Nazorat ishlari (joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlari) sohasida o'quv - biluv topshiriqlarini bajarishga doir mustaqil ishlar.

5. Malakaviy amaliyotlar bilan bog'liq o'quv - biluv topshiriqlarini mustaqil bajarish: pedagogik amaliyot, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liq o'quv- biluv topshiriqlari shular jumlasiga kiradi.

6. Maxsus kurs va maxsus seminarlarni o'rganish bilan bog'liq mustaqil ishlar: ma'ruza mavzusiga doir adabiyotlarni o'qib, o'rganib, biror masala bo'yicha matn tayyorlash, ma'ruza o'qishga hozirlanish kabilar.

7. Malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash sohasida mustaqil ishlar

Talabalar mustaqil faoliyatining shakllari, metodlari xilma xil bo'lib, fanni (sohani) mustaqil o'rganishning negizi hisoblanadi: ilmiy adabiyotlarni ANNOTATSIYA qilish, birlamchi manbalar bo'yicha konspekt tuzish, referat va ma'ruza yozish, kurs va bitiruv ishlarini bajarish, auditoriyadan tashqari paytda tajriba o'tkazish hamda olingan miqdoriy natijalarni ham miqdor, ham sifat jihatidan tahlil qilish va boshqalar.

Har qanday yangilik, taraqqiyot inson aql zakovatining mahsuli hisoblanadi, xuddi shu bois fan texnika rivoji ko'p jixatdan mutaxassisning mustaqil fikrlashiga bog'liq. Talaba kamoloti jismoniy, axloqiy va aqliy bosqichlardan iborat bo'lib, bu borada uning mustaqil fikrlashi muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrning talabalari jismoniy, axloqiy jihatdan komillik darajasiga erishsada, lekin aqliy kamolotga erishishi bir qancha ko'rinishlarga, ya'ni asab tizimining taranglashuvi, aqliy zo'riqish, hissiy jiddiylashuv, barqaror irodaviy akt, uzluksiz faollik, fidoyilik namunalari evaziga bosqichma bosqich amalga oshiriladi. Mustaqil tafakkur bu kishilardagi aqliy faoliyatning asosiy tavsifi bo'lib, tafakkurning individualligini belgilaydi. Shu boisdan, Oliy ta'limda mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mustaqil faoliyatni tashkil qilish bo'yicha beriladigan maslahat, vaqtni rejalashtirishga qaratilgan maslahat.

2. Mustaqil bilim va ma'lumot olish bo'yicha beriladigan maslahat:

➤ kutubxonadan foydalanish to'g'risidagi maslahatlar.

kitob bilan ishlash haqida maslahatlar.

➤ oqilona (ratsional) o'qish yo'llari yuzasidan maslahatlar.

➤ konspekt tuzishga oid maslahatlar.

o'qilgan psixologik manbalarning muhim joylarini ajratishga yo'naltirilgan maslahatlar:

➤ Bevosita o'qish jarayoniga taalluqli maslahatlar:

- ma'ruzani samaralirok konspekt qilishga aloqador maslahat,
- o'qilgan o'quv materiallarini omilkor, mantiqiy esda olib qolish bilan bog'liq asosiy fikrlarni umumlashtirish va tezisni tuzish bilan bog'liq maslahatlar.
- Ijodiy faoliyatga tegishli maslahatlar:
  - referat yozish mazmuni, mohiyati va xususiyati yuzasidan maslahat;
  - kurs ishi yozish qoidasi, talabi va prinsipi bo'yicha bildiriladigan maslahat;
  - bitiruv ishi yozishga doir fikr mulohazalar;
  - tezis va maqola tayyorlashga aloqador bo'lgan maslahatlar;
  - magistrlik dissertatsiyasiga taalluqli yo'l — yo'riqlar majmuasiga yo'naltirilgan maslahat.

Oliy ta'limda talabalarning mustaqil ta'lim olishini tashkil qilishning pedagogik-psixologik o'ziga xos xususiyatlarini asoslash, fakultetlarda olib borilayotgan mustaqil darslar mazmuni va uni egallashning texnologik shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ta'limni mazmunini yoritish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda oliy ta'lim tizimi oldida turgan aniq vazifalardan biri yoshlarning ijtimoiy faolligini hamda bilim darajasining raqobatbardoshligini ta'minlash, nazariy va amaliy bilimlarini mukammallik darajasiga olib chiqish masalasi dolzarbdir.

1. Talabalar o'quv-biluv faoliyatining o'ziga xos jihat va tamonlaridan biri ularning mustaqil bilimlar egallashi va mustaqil faoliyatni tashkil qilish masalasi katta ahamiyat kasb etadi.

2. Talabalarning bilimlarining sifat darajasini yanada ko'tarish uchun mustaqil bilim olishning innovatsion uslublaridan va imkoniyatlaridan keng miqyosda foydalanish, taxsil oluvchilarning axborotlarni saralash va filtrlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish lozim.

Yuqoridagi afzalliklarni e'tiborga olsak, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning muhim ahamiyatga ega ekanligi kelib chiqadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. В.С.Кузин. Психология. Из.2-е, -Москва, «Высшая школа», 1982 – 266 с.
2. Е.И.Корзинова. К проблеме развития профессионального мышления и педагогического творчества. Художественно педагогическое образование: современное состояние, перспективы развития. Сб. статей. –Москва, «Век книги» 2002-406 с.

3. В.Мандель. Принципы, цели и проблемы психолого-педагогического сопровождения образовательного процесса в современном высшем учебном заведении. –Бухара, «Психология» № 4 (16), 2014-120 с.
4. Система работы с одарёнными детьми в начальной школе. ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ОБРАЗОВАНИИ Часть 1 Москва 2017.
5. Самостоятельная работа студентов, как фактор мотивации учебной деятельности. “ВЕСТНИК ПО ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ ЮЖНОЙ СИБИРИ” Москва-Черногорск.
6. AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI. “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimida qayta tayyorlash va malaka oshirishning modernizatsiyalashgan didaktik muhiti” Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari to‘plami 2017 yil 14-15 aprel Buxoro.
7. A BRIEF HISTORICAL SKETCH. INTERNATIONAL JOURNAL OF PSYCHOSOCIAL REHABILITATION.
8. Odilova, M. O. "IMPROVING THE PEDAGOGICAL POTENTIAL OF BIOLOGY TEACHERS USING COMPUTER PROGRAMS." International Engineering Journal For Research & Development 5.9 (2020): 4-4.
9. Qodirovich M. D. et al. Methods Of Developing Students’ Spatial Imagination Using Computer Graphics In The Teaching Of Drawing //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – T. 27. – №. 1